

PARRANDALARNI NOTO‘G‘RI OZIQLANTIRISH TUFAYLI KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLARNI O‘Z VAQTIDA ANIQLASH.

Urinova Maloxatxon Isakbayevna

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada parrandachilik, xususan tuxum va go‘sh t yo‘nalishidagi tovuqlarning yuqori mahsuldorligini ta‘minlashga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, parrandalarning biologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni ilmiy asosda parvarishlash, oziqlantirish va mahsuldorligini bashorat qilish usullari muhokama etilgan. Muallif parrandachilik sohasida mutaxassis bo‘lmagan fuqarolar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar, zoogigienik talablarning buzilishi va fiziologik nazoratning yetarli darajada olib borilmasligi oqibatida yuzaga kelayotgan mahsuldorlikdagi pasayish holatlarini ko‘rsatgan. Maqolada parrandalar qonida fermentlar va mineral moddalarning biokimyoviy ko‘rsatkichlari orqali tuxum mahsuldorligini bashorat qilish imkoniyati tahlil qilinadi. Shuningdek, biologik faol moddalar yordamida parrandalarning salomatligi va mahsuldorligini oshirish usullari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Parrandachilik, tuxum mahsuldorligi, parhez go‘sh t, biokimyoviy tahlil, fiziologik xususiyatlar, zoogigiena, oziqlantirish normasi, fermentlar faolligi, kalsiy moddasi, biologik faol moddalar, metabolik jarayonlar, tuxum qo‘yuvchi parrandalar, parrandalar qon testi, ontogenez.

TIMELY DETECTION OF DISEASES CAUSED BY INADEQUATE FEEDING IN POULTRY

Urinova Malokhatkhon Isakbaevna

Assistant, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Abstract: This article analyzes the main factors that hinder high productivity in poultry farming, particularly in egg- and meat-producing chickens. It discusses methods of scientifically managing poultry care, feeding, and productivity forecasting by considering their biological, physiological, and biochemical

characteristics. The author highlights common mistakes made by non-specialist poultry keepers, including violations of zoohygienic standards and insufficient physiological monitoring, which lead to declines in productivity. The article also explores the potential of predicting egg production by analyzing biochemical indicators such as enzyme activity and mineral levels in poultry blood. Additionally, it addresses the use of biologically active substances to improve the health and productivity of poultry.

Keywords: Poultry farming, egg productivity, dietary meat, biochemical analysis, physiological characteristics, zoohygiene, feeding standards, enzyme activity, calcium level, biologically active substances, metabolic processes, laying hens, blood testing in poultry, ontogenesis.

Parrandalar, jumladan tovuqlar, oʻrdaklar, gʻozlar, kurkalar qisqa vaqt ichida koʻp miqdorda tuxum mahsuloti, lazzeatli parhez goʻsht mahsuloti yetkazib berishi, goʻshtini tez xazm boʻlishi, goʻsht tarkibi turli xildagi kimyoviy elementlarga boy boʻlishi va tuxum tarkibida sof oqsil, vitaminlar, fermentlar mavjudligi bilan diqqatga sazovordir. Parrandalar tez yetiluvchan, tez koʻpayuvchan va sifatli mahsulot berishiga koʻra va semirishi uchun sarflanadigan oziq birligining eng kam miqdordaligi bilan birinchi oʻrinda turadi. Masalan goʻsht yoʻnalishidagi tovuq joʻjalari 60-80 kun ichida 1,2-1,5 kg semirib, 1 kg semirish uchun atigi 3,5 kg oziq birligi sarflaydilar.

Bu omillar quyidagilardan iborat: birinchidan – parrandalarni parvarishlayotgan shaxslar mutaxassis boʻlmaganliklaridan parrandalarni biologik xususiyatlaridan, fiziologiyasidan yaxshi xabardor emaslar; ***ikkinchidan*** – parrandalarni saqlash, parvarishlash, oziqlantirishdagi zoogigienik talablarni bilmaslik tufayli ularga amal qilinmaslik. Jumladan, parrandalar saqlanayotgan binolarda havo harorati, havoning nisbiy namligi, havo almashinishi (ventilyatsiya) normalariga rioya etmaslik; ***uchinchidan*** - parrandalarni fiziologik ehtiyojlariga qarab oziqlantirish jarayonini nazorat qilishda ularning qonidan namuna olib biokimyoviy taxlil usullaridan umuman

foydalanilmasligi. (Maqola muallifidagi ma'lumotlarga ko'ra Andijon viloyat veterinariya laboratoriyasida parrandalar qonidan namunalar gemotologik tekshiruvlar uchun keltirilmaganligi sababli taxlillar o'tkazilmagan.)

Bizning fikrimizcha, tuxum maxsuloti beruvchi parrandalarni, xususan makiyonlarni mahsuldorligini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash uchun parrandalarni turi, yoshi, jinsi, mahsuldorlik darajasiga qarab energiya va plastik moddalarga bo'lgan ehtiyojini va shu bilan birga bir qator zootexnikaviy o'lchovlar, me'yorlarni chuqur bilishni xam taqozo etadi. Yuqoridagi masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish parrandalar organizmining genetik, morfologik, fiziologik va biokiyoviy xususiyatlarini chuqur bilmasdan turib mumkin emas deb hisoblaymiz. Buning uchun turli fiziologik va biokiyoviy testlar (sinovlar) o'tkazilib, ular orqali metabolik jarayonlarning darajasi, parranda organizmi ontogenezing turli bosqichlarida oziqlantirishning to'yimlilik darajasini aniqlash mumkin bo'ladi. Masalan, qon zardobidagi ayrim fermentlarning va kalsiy moddasining faollik ko'rsatkichlari kelgusida tuxum mahsuldorligi qay darajada bo'lishini bashorat etish imkonini beradi. Mavjud bo'lgan fiziologik testlardan foydalanish usullari yoki yangi usullarni ixtiro (kashf) etilishi parrandachilikda tobora keng qo'llanilayotgan biologik faol moddalar (vitaminlar, gormonlar, mikroelementlar) dan foydalanish samaradorligini aniqlash va nazorat qilishga imkon yaratadi. Ma'lumki, parrandalar bir qator biologik xususiyatlarga ega. Bunga misol qilib ularning tez rivojlanib o'sishi, yuqori serpushtlilik, fiziologik jixatdan tez yetilishi, tana temperaturasining nisbatan yuqori ($40 - 42^{\circ}\text{C}$) ekanligi, embrionning ona tanasidan tashqarida rivojlanishi, teri va teri hosilalarini o'ziga xos tuzilishga ega ekanligini keltirish mumkin. Shu jihatdan parrandalar fiziologiyasi boshqa sut emizuvchilarnikidan tubdan farq qiladi. Organizmning xamma asosiy funksiyalari uning fiziologik ehtiyojlari atrof muhit bilan bir butun, yaxlit bo'lgandagina normal amalga oshishi mumkin. Tashqi muhit shart sharoitlari deganimizda parrandalarni ozuqa manbalari (ozuqaning turi, ko'rinishi, ozuqa

tarkibi, uni saqlash sharoitlari)ni , makro va mikroiqlim (temperatura, nisbiy namlik, xavoning tarkibi, barometrik bosim, yoritilish) ni tushunamiz. Parrandalarni mahsuldorligi yuqori darajada bo'lishi uchun tashqi muxit sharoitlarini nisbatan doimiy bo'lishi talab etiladi. Bu sharoitlarni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yorlaridan ko'p yoki kam bo'lishi parranda organizmida kechadigan fiziologik jarayonlarni normal o'tishiga salbiy ta'sir etmasligi kerak. Parrandalarda qon miqdori tana og'irligiga nisbatan jo'jalarda 10-13 % ni , voyaga yetganlarida esa 8,5 – 9 % ni tovuqlarda o'rtacha 8,7 % ni, o'rdaklarda 8,6 % ni tashkil etadi. Qonning mutloq (absolyut) miqdori 2,0-3,6 kg li tovuqlarda 180 – 315 ml, 4 kg li o'rdaklarda 360 ml, 7 kg li g'ozlarda 595 ml, 8 kg li kurkalarda 688 ml ga to'g'ri keladi. Bu qonning 65-70 % qon tomirlari bo'ylab aylanish (sirkulyatsiya) da , qolgan miqdori jigar, taloq, teri tomirlarida depoda saqlanadi. Tez va bir marotabada $\frac{1}{3}$ - $\frac{1}{4}$ qism qonning yo'qotilishi parrandani o'limiga sabab bo'ladi.

Parrandaning qon tarkibi organizmning holatiga, yoshiga, jinsiga, oziqlantirish darajasiga va boshqa omillarga bog'liq. Jo'jalarning qonida 14,4 %, yetuklarida 15,6 dan 19,7 % gacha quruq modda mavjud. Parrandalar qoni tarkibidagi oqsillar ko'p tomonlama ahamiyatga ega. Oqsil moddasi qon bosimini belgilaydi va qon bilan to'qimalar o'rtasidagi suv almashinishida uning ahamiyati beqiyosdir. Qon oqsili buferlik xususiyatini namoyon etadi va organizmda kislota – ishqor muvozanatini ta'minlaydi. Qon plazmasi tarkibidagi oqsillarni katta qismi jigarda hosil bo'ladi. Oq leggorn tovuqlarda qon plazmasidagi umumiy oqsil miqdori 4,09 - 4,64% , shu zotga mansub bir kunlik jo'jalarda 3,5 - 4,0 % ni tashkil etadi.

Oqsillarni tarkibidagi albuminlarning globulinlarga nisbati (oqsil koeffitsenti) parrandalarni yoshiga va maxsuldorligiga bog'liqdir. Tug'mayotgan makiyonlarda oqsil koeffitsenti o'rtacha 0,96 , tuxum qilayotganlarida 0,52 ga teng. Jo'jalar katta bo'lib borishi bilan albumin kamayib, globulin esa ortib boradi. Oqsilning globulin fraksiyasi jo'ja 150

kunlik bo'lganda eng yuqori darajaga yetadi. Tuxum qilayotgan makiiyonlar qonidagi kalsiy miqdori qishloq xo'jaligi xayvonlari qonidagi kalsiy miqdoridan ko'pligi bilan ajralib turadi. Kalsiyniing katta qismi Ca^{++} ioni xolatida bo'lib, xujayra membranasidan o'ta oladi. Kalsiyniing qon plazmasidagi miqdori parrandalarni yoshi va maxsuldorligi bilan va ratsion tarkibidagi kalsiy miqdori bilan bog'liq. Tuxum qilmayotgan tovuqlarda qon plazmasida 9-12 mg % , tuxum qilayotganlarida 20 - 26 mg % , ovulyatsiya xolatida 35 mg % gacha kalsiy uchraydi.

Parrandalar qoni plazmasida oqsil, uglevod, yog', mineral moddalar almashinuvida qatnashadigan ko'plab fermentlar ham uchraydi. Ularning faolligi almashinuv jarayonlarida juda muxim xisoblanadi. Parrandalarda modda almashinuv jarayonining intensivligi aminokislotalar almashinuvida ishtirok etadigan transaminaza, uglevod almashinuvidagi geksokinaza va amilaza, yog' almashinuvidagi butirinaza, mineral moddalar almashinuvidagi fosfataza fermentlari faolligiga bog'liq.

Xulosa: Parrandalarning kasalliklari orasida asosiy o'rinni ularni to'ydirib boqilmasligi (protein, uglevodlar, vitaminlar, makro va mikroelementlar yetishmasligi) tufayli kelib chiqadigan kasalliklar egallashi sababli ham oziqlantirish darajasini veterinariya laboratoriyalarida qonni biokimyoviy tekshirishlardan o'tkazishni juda muxim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.H.Haitov, A.D.Dushanov. "Hayvonlar fiziologiyasi" "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1975 yil.
2. A.M.Смирнов и др. "Клиническая диагностика внутренних незаразных болезней сельскохозяйственных животных" Издательство " Колос " 1981г
3. А.П.Костин и др. "Физиология сельскохозяйственных животных". Москва " Колос " 1983 г